

О‘ЗBEKISTON TURIZM ALOQALARINING JAHON TURIZM BILAN BOG‘LIQLIGI

Ismoilova Maftuna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti
Gid hamrohligi va tarjimonlik yo'nalishi magistrali*

Annotation: The article based on the World Tourism Organization (UNWTO) data and a number of other organizations. There is considered changes in the tourism sector, in particular, it analyzes in detail the shifts in the number of tourists coming to Uzbekistan and other countries, their causes and factors. Despite the worsening geopolitical situation, the flow of foreign tourists is increasing.

Key words: tourism, international tourism, recreational resources, tourist resources, tour operator, rest house, medical institution, sanatorium.

Kirish. Hozirgi kunda turizmning jahon xo‘jaligida hissasi yil sayin oshib, makroiqtisodiy tarmoqlar qatorida rivojlanib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida “...turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – joriy yilda yurtimizga keladigan turistlar sonini 7,5 millionga yetkazishdan iborat. Ma’lumki, qator nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalari 2020 yilda O‘zbekistonni sayohatga albatta borish tavsiya etilgan mamlakatlar qatoriga kiritdi. Biz bunday imkoniyatdan unumli foydalanishimiz kerak. Katta salohiyatga ega bo‘lgan ziyorat va tibbiyot turizmini ham jadal rivojlantirish zarur”¹.

BMT jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2019 yilda dunyo bo‘ylab amalga oshirilgan xalqaro turistik sayohatlar soni 1,5 mlrd. tashkil etdi. Xalqaro turizmning o‘shishi ketma-ket o‘ninchi yil davom etmoqda. O‘tgan yilga nisbatan 4% o‘shish va 2020 yilga rejalashtirilgan bir xil o‘shish turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va barqaror tarmoqlaridan biriga aylanganini ko‘rsatadi. Xalqaro turistik sayohatlar soni ATOR bo‘yicha 4% ga oshdi. Fransiya hamon jahon turizmining yetakchisi. Mamlakat 90,2 million mehmonni qabul qildi². Dunyodagi eng ko‘p tashrif buyurgan mamlakatlar, 90,2 million sayyohlar – Fransiya; 83,8 million sayyohlar – Ispaniya; 78,7 million sayyohlar – AQSH; 67,5 million sayyohlar – Xitoy; 64,6 million sayyohlar – Italiya; 52,5 million sayyohlar – Turkiya; 44,9 million sayyohlar – Meksika; 39,4 million sayyohlar - Germaniya davlatlari³. 2019 ning eng tez rivojlanayotgan joylari ham nomlandi. Yetakchi Myanma bo‘lib, unda 2018 yilga nisbatan turistlarning o‘shishi 40,2 foizni tashkil etdi. Mutaxassislar 2019 yilda, vaziyat sayyohlik oqimining o‘shishiga hissa qo‘shgan va tez

rivojlanayotgan sayyohlik yoʻnalishlari, Myanma +40.2%, Eron +27.9%, Oʻzbekiston +27.3%, Chernogoriya 21.4 +%, Misr +21.1% ga oʻsdi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Turizm qisqa vaqt ichida eng tez rivojlanayotgan va serdaromad sohaga aylanib ulgurdi. Shu bois koʻplab mamlakatlar ushbu sohani yanada taraqqiy ettirish, tegishli infrastrukturani dunyo talablari darajasiga koʻtarishga harakat qilmoqda. Buyuk Ipak yoʻlining markazlaridan birida joylashgan va tarixiy obidalarining koʻpligi jihatidan dunyoda yetakchi oʻrinlarda turadigan, eng eʼtiborlisi, xalqaro sayyohlik tashkilotlari tomonidan “Ochiq osmon ostidagi muzey” deya eʼtirof etilgan Oʻzbekistonda ham bu tarmoqni rivojlantirish maqsadida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilyapti. Mamlakatimizda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish oʻrinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni taʼminlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Keyingi yarim asr mobaynida Oʻzbekistonda turizm rivojlanish davri boʻldi, bunda xalqaro turizm nihoyatda jadal va keng miqyosda taraqqiy etayotgan xizmat koʻrsatish sohalaridan biriga aylandi. Butun jaxon turistik tashkilotining metodologiyasiga binoan chetdan kelgan har qanday xorijlik fuqaro turist hisoblanadi.

Diqqatga sazovor jihati shundan iboratki, bugungi taxlikali vaziyat mavjud boʻlib, u yaxshilanishi toʻgʻrisida hech qanday maʼlumot mavjud boʻlmagan vaqtda turistlar soni jadal surʼatlarda oʻsib bormoqda. Eng qizigʻi, turistlar soni geosiyosiy vaziyati nihoyatda murakkab boʻlgan Yaqin va Oʻrta Sharqda ham, Shimoliy Afrikada ham kamaymayapti. AQSH, Kanada, rivojlangan Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari barqaror tarzda katta miqdorda turistlarni qabul qilishni davom etmoqda. Hozirda ikki tomonlama xalqaro shartnomalar va tenglik asosida ikki tomonlama vizasiz rejim 85 ta davlatlar bilan oʻrnatilgan.

Tadqiqot metodi. Tadqiqotlar davomida tizimli tahlil, statistik guruhlash va taqqoslama tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning asosiy natijalari. Maqola turizmni bundan yarim asr ilgari xolati taqqoslangan tarzda tahlil qilindi, uning rivojlanish omillari va sabablari baholandi, turizmni respublika iqtisodiyotiga taʼsiri baholandi, turistik sohani rivojlantirish va uning muammolari, turizmning qaysi yoʻnalishlarini rivojlantirish masalalari oʻrganildi. Turizm axoli soni emas, balki boshqa koʻrsatkichlar, shu jumladan dastavval rekreatsiya resurslarining xilma-xilligi va boyligi asosiy oʻrin egallaydi. AQSH rekreatsiya resurslar bilan bir navbatda tarixiy, diniy betakrorlik bilan ham ajralib turadi. Yellouston va Yosemite milliy bogʻlari, Niagara sharsharasi, Kolorado daryosi vodiysi va unda barpo etilgan ulkan GES hamda toʻgʻonning, Buyuk koʻllar va sekvoyya (mamont) daraxti va uning atrofidagi soylarda losos baliqlarining, grizli

ayig'ining mavjudligi turistlarni o'ziga jalb qiladi (Bolshaya ilyustrirovannaya ensiklopediya "Geografiya". ZAO kompaniya "Jahon", 2004. S 59.) Xuddi shunday fikrni Kanada haqida ham bil-dirish mumkin. Lekin unda tabiiy va iqlimiy sharoitlarning murakkabligi aholi sonini o'sishi hamda tarqalishi hududini cheklaydi, uni faqat janubiy AQSHga qo'shni rayonlarida aholi joylashishini ta'minlaydi. AQSH Kanada bilan birgalikda Niagara sharsharasidan turistik maqsadlarda foydalanmoqda. Bunda ikkala davlat ham 15-20 million kishiga teng turistlarni statsionar tomosha qiladigan maxsus joylarda yoki kemalarda sharsharadagi suvni Ontario ko'lidan Avliyo Lavrentiy daryosiga tushishini tomosha qilishini ta'minlamoqda. AQSHning boshqa turistlarni jalb qiluvchi obyektlarida ham tomosha qiladigan xavfsiz joylar tayyorlanib qo'yilgan. Yellouston va Yosemite milliy bog'larida grizli ayiqlarini tomosha qiladigan maydonchalar barpo qilingan. Ana shunday yo'l mana bir necha o'n yillardan beri o'zining samarasini bermoqda. AQSHda undan tashqari turistlarni o'ziga jalb etuvchi tarixiy-madaniy obyektlar ham anchagina, shulardan Yuta shtatidagi "mormonlar" tashkil etgan xristian cherkovi turistlarni o'ziga jalb etadi. Bu o'rinda Arkanzas va Jorjiya shtatlaridagi fransuzlardan qolgan tarixiy yodgorlik ham ahamiyatlidir. AQSHning rang-barang tabiati millionlab turistlarni o'ziga jalb etadi. NyuYork, Vashington, ko'l bo'yidagi Chikago, Detroyt, Kaliforniyadagi osmono'par binolar turistlarni beixtiyor o'ziga tortadi. Xuddi shuningdek Meksikadagi xindular barpo etgan yodgorliklar, Braziliyadagi Amazonka daryosi, Argentinadagi Parana daryosidagi shar-sharalar, Braziliyaning Atlantik okeani soxilidagi cho'milish joylari va boshqalar ko'plab turistlarni o'ziga jalb etadi. Turistik xizmatlarni ado etishda Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari alohida o'rin egallaydi. Bunda axoli soni tez sur'atlarda o'sishi xuddi, shuningdek, iqtisodiyotning ham past bo'lmagan sur'atlarda rivojlanishi va boshqa jihatlar muhim rol o'ynaydi. Mamlakatlar doirasida turistlarni qabul qilish hajmi Xitoyda ancha yuqori. 2018 yilda 60,7 millionga teng, lekin axoli soniga nisbatan oladigan bo'lsak, mazkur ko'rsatkich ancha past ekanligi ayon bo'ladi (The World Tourism Organization 2020). Xitoyda turistlarni o'ziga jalb qiladigan obyektlardan Buyuk Xitoy devori alohida o'ringa ega. Uch ming kilometrdan ziyod bo'lgan ana shu obyekt xanuzgacha o'zining ahamiyati va oldingi holatini saqlab qolgan. Tailand o'zining dam olish maskanlari bilan dunyoga mashhur bo'lib, ularda har yili bir necha million sayyoxlar dam oladi (masalan, Pxuket yarim orolida). Malayziya o'zining tropik o'rmonlari hamda poytaxtda qad ko'targan binolari bilan dunyoga mashhur (masalan, qalayidan barpo etilgan qo'sh minorali ko'p qavatli bino). Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakasi Gonkong va Portugaliyaning sobiq mustamlakasi Makao hozirgi vaqtda Xitoy Xalq Respublikasi tarkibiga kiradi, ular o'zlarining tarixiy yodgorliklari hamda turli shaklda barpo etilgan binolari bilan turistlarni o'ziga jalb qiladi. Koreya Respublikasi iqtisodiyoti Osiyoda juda yuqori sur'atlarda rivojlangan davlat, mashhur konsernlari, firmalari bilan turistlarni o'ziga

tortadi (“Samsung”, “Hyundai” shular jumlasidandir). Xullas, Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyo o‘ziga xos davlatlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning turizm soxasidagi faolligi endi-endi o‘zini ko‘rsata boshladi. Yaqin Sharq o‘zining tarixiy-madaniy yodgorliklari, ziyoratgoh joylari bilan ajralib turadigan mintaqadir. Shularning ichida Makka va Madina shaharlari o‘zining axamiyati bilan alohida o‘rin egallaydi. Matbuot ma’lumotlariga binoan, 2019 yilda haj safariga kamida 2,7 million ziyoratchi bordi. Bu qisqa vaqt ichida bajo keltiriladigan islom dinidagi amaldir. Undan tashqari umra safari ham bor. Demak, Saudiya Arabistoniga yiliga borayotgan ziyoratchilarning soni 3,5-4 million kishini tashkil etadi. Undan tashqari bu yerga yaqin joylarga yiliga juda ko‘plab yahudiylar va xristianlar ziyoratga boradilar. Yahudiylar Ierusalim (islom dunyosida Quddus)da joylashgan “Yig‘i devori” yonida ibodat qiladilar, xristianlar esa Iso payg‘ambar tug‘ilgan ibodatxonada sexrli olovni tushirilishini kutadilar. Shulardan tashqari mintaqada juda ko‘plab ziyoratgohlar Turkiya, Livan, Misr, Iordaniya, Eron, Iroqda mavjud. Ana shular ichida Misr exromlari, Iordaniyadagi ibodatxona va ayniqsa shia musulmonlar ziyoratgohlari – El-Najafda payg‘ambarimiz Muhammad payg‘ambar sallollohu alayhi vassallam kuyovlari Ali ibn Tolib qabri hamda uning farzandi “Imom Xusayn” qabri joylashgan Karbalo shahri alohida o‘rin egallaydi. Undan tashqari Iroqda “Bobil” va “Osma bog‘lar” tarixiy yodgorliklari qoldiqlari ahamiyatlidir. Yevropa mamlakatlari “Buyuk geografik kashfiyotlar” davrini kashf qildi, hozirgi vaqtda esa ular juda katta turistik oqimlarini ochib bermoqda. Aynan ana shu qit‘adagi mamlakatlar, turistlar soniga binoan yetakchilik qiladi. BMTning butun jahon turistik tashkiloti (UNWTO) statistikasiga ko‘ra 2018 yilda Yevropaga 713 million turist keldi. Shu jumladan 2017 yilga nisbatan turistik oqimlar Janubiy Yevropada 7 foizga, G‘arbiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida 6 foizga ko‘paydi. Turistik oqimlar Buyuk Britaniyadan “Brexiti” tufayli o‘zgarmadi. Aks holda u ko‘payardi. Yevropa mamla-katlari, ayniqsa oldindan turistik mamlakatlar sifatida tan olingan Fransiya, Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya davlatlari barqaror tarzda har yili 37 milliondan (Germaniya, Buyuk Britaniya) salkam 90 milliongacha (Fransiya, Italiya) turistlarni qabul qilmoqda. Mazkur davlatlarga jami yiliga 300 million turist tashrif buyurmoqda. Mana shu 5 mamlakatga dunyoda jami turistlarning har 5 tasidan 1 tasi to‘g‘ri kelayotganidan dalolat beradi (21,1 foizi) (The World Tourism Organization 2020). O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalasiga ancha vaqtdan beri e‘tibor berib kelinmoqda. Lekin amalda bu yo‘nalishda katta ishlar qilinmadi. Faqat davlat mustaqilligi yillarida bunga astoydil kirishildi. Mamlakatda turizmga aloqador va zarur bo‘lgan barcha me‘yoriy hujjatlar, “Turizm to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi hamda O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi. Bularning barchasi turizmni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganidan dalolat bermoqda.

Tadqiqotning ilmiy mohiyati. Turizmni, shu jumladan, Xalqaro turizmni rivojlantirish uchun keng qamrovli ishlar amalga oshirilganligi har tomonlama va chuqur tahlil qilindi. O‘zbekistonda turizmni jozibadorligini e’tiborga olgan holda bir qator iqtisodiy rayonlarga taqsimlandi. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat Qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonga 2019 yilda 6 748 500 sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, 2018 yilda bu ko‘rsatkich 5 346 200 ni tashkil etgan. 2019 yildagi sayyohlarni 51,3 foizi 33-55 bo‘lgan yoshdagilar, 20,2% bo‘lgani 55 yoshdagi sayyoxlar va undan katta yoshdagilar 19,5% bo‘lgan. Eng ko‘p sayyohlar Markaziy Osiyo mintaqasidan kelgan 5 764 500 sayyohlardir. MDH davlatlaridan 495 ming 600 nafar sayyoh keldi. Xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurganlar soni 488 400 kishini tashkil etdi. Sayyohlarning aksariyati Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Afg‘oniston, Xitoy, Koreya Respublikasi va Hindistondan kelgan. Shundan 81,8% O‘zbekistonga o‘z yaqinlari va do‘stlarini ziyorat qilish, 15,5% esa dam olish uchun kelgan. Boshqa sabablarga ko‘ra, davolanish, xarid qilish, biznes uchrashuvlarida ishtirok etish va o‘qish maqsadida kelganlarning ulushi 2,7% ni tashkil etdi. 2019 yil yakunlariga ko‘ra, safar xizmatlari eksport hajmi 1 032 313 AQSH dollarini tashkil etdi. 2018 yilda 1 041 089 AQSH dollarini tashkil etgan. O‘zbekistonda turistlar uchun turar joy ob‘yektlarining umumiy soni 1 188 taga, shu jumladan, 833 ta mehmonxona, 214 ta yotoqxona va 141 ta boshqa turdagi shu kabi obyektlarni tashkil etdi. Turizm sohasida ajratilgan mablag‘lardan viloyat bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi 62,6%, Andijon viloyati 65,0%, Buxoro viloyati 96,6%, Jizzax viloyati 52,5%, Qashqadaryo viloyati 61,0%, Navoiy viloyati 74,3%, Namangan viloyati 40,6%, Samarqand viloyati 82,3%, Sirdaryo viloyati 64,4%, Surxondaryo viloyati 68,8%, Toshkent viloyati 76,1%, Farg‘ona viloyati 42,7%, Xorazm viloyati 81,5%, Toshkent shahri 85,7% tashkil etdi. Belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratishga, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanishga, turizm tarmog‘ini boshqarishni tubdan takomillashtirishga, milliy turizm mahsulotlarini bunyod etishga yaratadi. AQSH, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Xitoy, Indoneziya, Rossiya va boshqa davlatlardan o‘ttizta ommaviy axborot vositasi vakillaridan 160 nafarining tashriflari respublika sayyohlik salohiyatini jahon hamjamiyati o‘rtasida keng targ‘ib etish maqsadida tashkil etildi. An’anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy targ‘ibot usullaridan ham foydalanilmoqda, jumladan, 2019 yilning 17 dekabridan 21 dekabrigacha Tokio (Yaponiya) dagi Shibuya maydonida O‘zbekistonning sayyohlik salohiyati namoyish etilgan va videorolik namoyish etildi.

Xulosa:

O'zbekistonga sayyohlarni jalb yetish uchun turli ijtimoiy-madaniy ko'ngilochar tadbirlarning ahamiyati hisobga olingan holda o'tgan yildan boshlab har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turli tadbirlar tashkil etildi. Haj (ziyarat) sayyohlik forumi (Buxoro viloyati), "Baxshi" san'at festivali, "Arxeologik forumi" (Surxondaryo viloyati), "Qahramonlar o'yini" (Xorazm viloyati), avtoralli "Muynak", "Element" musiqa festivali (Qoraqalpog'iston Respublikasi), MDH sayyohlik yarmarkasi (Samarqand viloyati), "Geoturizm forumi", Anor festivali (Qashqadaryo viloyati), elektron musiqa festivali, gastronomiya festivali (Toshkent) kabi yirik tadbirlar bo'lib o'tdi. Mehmonxona, sanatoriy, sog'lomlashtirish majmualari va sport dam olish maydonlarini qurishga qaratilgan umumiy qiymati 1,1 milliard AQSH dollariga teng 26 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Xorijiy turistlar oqimining keskin o'sib borishi 10-12 yil ilgari O'zbekistonning boy va xilma-xil rekreatsion resurslari bilan bog'langan bo'lsa, keyingi yillarda ushbu holat ziyorat turizmini taraqqiy etishi bilan bog'lanmoqda. Samarqand viloyatida butun dunyoda tan olingan yirik xadisshunos olim Al-Buxoriy nomi bilan bog'langan ko'rgazmaning ta'mirlanib, qaytadan ochilishi, bu yerga butun dunyodan ko'plab islomshunos olimlar, mutafakkirlar, millionlab oddiy musulmonlarni o'ziga jalb qilmoqda.

Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida ikkinchi yirik xadisshunos olim At-Termiziy maqbarasini ta'mirlab, uni obod qilinishi sababli, bu muqaddas joy ham ko'plab xorijlik turistlarni jalb qilmoqda. Toshkent shahrida "Islom sivilizatsiyasi markazi" qurib bo'lingandan keyin, u ham ko'plab xorijlik turistlarni jalb qilishi kutilmoqda.

O'zbekistonda ziyorat turizmi maskanlari qatoriga Xivadagi Ichan qal'a, Paxlavon Mahmud maqbarasi, Buxorodagi Bahovuddin Naqshband va G'ijduvoniylar maqbaralari, Jizzah viloyatidagi Muqaddas Doniyor (Jizzax yulida) maqbarasi, Toshkent viloyatidagi Zangiota majmuasi va ko'plab boshqalarni kiritish mumkin. O'zbekistonda turistik xizmatlar eksporti o'sayotganligi kuzatilmoqda.

O'zbekistonda mavjud rekreatsion resurslarni quyidagi rayonlarga bulish mumkin. Ushbu resurslarga nihoyatda boy Toshkent rayoni uning tarkibida juda kup dam olish va davolanish maskanlari kiradi. Mana shunday holatning shakllanishida Chorvoq suv omborining ahamiyati beqiyosdir..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni. - <https://lex.uz/docs/3107036>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi ma’lumotlari.

4. Mirovaya ekonomika. Uchebnik. – M.: “Yurist”, 2018 y.

5. Abduxakimov A. “Tashkent Travel Mart” B2B formatidagi ko‘rgazmani ochish marosimidagi so‘zlagan nutqi. 2019 y.

6. Bolshaya illyustrirovannaya ensiklopediya “Geografiya”. - ZAO “Maxayen”, 2004.

Internet saytlari:

1. <https://www.norma.uz>

2. <https://www.vestifinans.ru>

3. [https:// www.otpusk.uz](https://www.otpusk.uz)